Financial and Economic Sustainability
FINECS ISSN-2181-1636 Vol. 3, Issue 3, Sept, 2023
https://finecs.net

MOLIYAVIY NAZORAT METODOLOGIYASINI O'RGANISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY JIHATLAR

Temirov Muxammadali Xamidovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Menejment va marketing" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy nazorat metodologiyasi tizimli o'rganilgan bo'lib, uning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi. Moliyaviy nazorat ham korporativ, ham davlat sektorida moliyaviy menejmentning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni samarali qo'llash moliyaviy barqarorlikka erishish uchun juda muhimdir. Maqolada moliyaviy nazoratning asosiy tushunchalari, jumladan uning maqsadlari, usullari va vositalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy nazorat metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etishda duch kelinadigan mavjud tendensiyalar va muammolar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Xulosa qismida moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, moliyaviy nazorat metodologiyasi, nazorat usullari.

Аннотация

Данная статья представляет собой систематическое исследование методологии финансового контроля с акцентом на его теоретических основах и практических применениях. Финансовый контроль является важным компонентом финансового управления как в корпоративном, так и в государственном секторе, и его эффективное применение имеет важное значение для достижения финансовой стабильности. В статье рассматриваются основные понятия финансового контроля, в том числе его цели, методы и инструменты. Также даны общие сведения о современных тенденциях и проблемах, возникающих при разработке и внедрении методологии финансового контроля. В заключении приведены рекомендации по совершенствованию методологии финансового контроля.

Ключевые слова: финансовый контроль, методология финансового контроля, методы контроля.

Abstract

This article is a systematic study of financial control methodology, focusing on its theoretical foundations and practical applications. Financial control is an important component of financial management in both the corporate and public sectors and its effective application is essential for achieving financial stability. The article discusses the basic concepts of financial control, including its goals, methods and tools. General information about modern trends and problems arising in the development and implementation of financial control methodology is also provided. In conclusion, recommendations are given for improving the methodology of financial control.

Key words: financial control, financial control methodology, control methods.

Kirish

Boshqaruv jarayonida nazorat muhim o'rin egallashi barchamizga birdek ma'lum. Zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat moliyasi va davlat mulkini boshqarishning maqsadlari o'zgarishlarga uchramoqda. Bunda asosiy maqsad - davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, jamiyatni sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash, shuningdek, davlat organlari va soha faoliyatining ochiqligini ta'minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, davlat sektorida nazoratni tashkil etish va uning metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Davlat sektorida nazorat iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari faoliyati ustidan moliyaviy nazoratning umumiy tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u asosan xo'jalik ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi va moliyaviy yo'nalishga ega. Shu bilan birga, byudjet islohotlarining faol amalga oshirilishi munosabati bilan davlat sektori ishtirokchilari faoliyatini baholashga qo'yiladigan talablar ortib borayotganligini, natijada idora va davlat muassasalari faoliyatining yangi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb eta boshlaganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar dastlabki va keyingi nazorat jarayonida idora va muassasalar faoliyatini baholash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Shu sababli, hozirgi vaqtda davlat moliyaviy nazorati metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarur. Nazoratning ilmiy asoslangan yangi maqsad va vazifalarini, shuningdek, davlat sektori ishtirokchilari faoliyatini baholash usullarini, xalqaro standartlarga javob beradigan uslubiy yondashuv va tartiblarni ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy nazoratga metodologik yondashuvlar sohasidagi nazariy tadqiqotlarni tahlil qilishda ushbu sohadagi olimlarning turli qarashlarini tushunish muhim sanaladi.

Maysigovaning fikricha nazorat doktrinasi amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan yagona tamoyillarni o'z ichiga olishi, tafovutlar va ikki tomonlama talqinlarga yo'l qo'ymasligi kerak va uning asosida yagona metodologiyani ishlab chiqish va rivojlantirish zarur. Aks holda, ilmiy munozaralar hech qachon nazariy doiradan tashqariga chiqmaydi va amaliy muammolarni hal qilish uchun foydasiz bo'lib qoladi [24]. Bu bilan muallif nazorat tizimini ishlab chiqish va boshqarishda pragmatik va tizimli yondashuvni taklif qiladi.

Yana bir yondashuvga ko'ra nazorat tartib-qoidalarining muayyan vazifalarini hal qiluvchi moliyaviy nazorat usullari, shuningdek, texnik usullar majmui moliyaviy nazorat metodologiyasini tashkil etadi. Bundan tashqari, nazorat obyekti uchun belgilangan ko'plab baholash mezonlari moliyaviy nazorat usulining bir qismi hisoblanadi [18].

Pashkova nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratning turli usullarini amalga oshirish metodologiyasi tashqi moliyaviy nazoratning tegishli standartlarida mustahkamlangan bo'lishi lozimligini, hamda, standartlar mamlakat byudjeti tizimining barcha darajalarida nazorat vakolatlarini amalga oshirish xususiyatlarini ajratib turadigan darajada farqlanishi kerak ekanligini ta'kidlaydi [29].

Ushbu yondashuvda boshqaruvning turli darajalarida moliyaviy operatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan tashqi moliyaviy nazorat standartlarini ishlab chiqish va qo'llash muhimligi ta'kidlangan. Bu moliya ustidan samaraliroq nazoratni

amalga oshirishga yordam beradi va moliya sektorida shaffoflik va risklarni boshqarishni, hamda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Moliyaviy nazorat metodologiyasining yana bir kontseptsiyasining mohiyati umumiy va maxsus metodologiyani farqlashdan iborat bo‘lib, moliyaviy nazoratning umumiy metodologiyasi falsafiy vositalardan foydalanishga, maxsusi esa o‘rganilayotgan muayyan fanning xususiy jarayonlarini o‘rganishga asoslangan. Shu bilan birga, maxsus nazorat usullari, o'z navbatida, batafsilroq bo’linadi [14].

O’rganilayotgan mavzuda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligini guvohi bo’lishimiz mumkin. Jumladan, Tulaxodjayeva mamlakatimizda davlat moliya nazoratini tashkil qilishning nazariy, metodologik asoslari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkiliy va uslubiy jihatlari, uni takomillashtirish masalalarini o’rgangan [31]. Shuningdek, Xayitboyevning tadqiqotlarida O‘zbekistonda davlat moliya nazoratini tashkil qilishning hozirgi davrdagi holati, uning huqiqiy asoslari, ushbu jarayondagi mavjud kamchilliklar va ularni bartaraf qilish masallarini o‘rganilgan [33].

Moliyaviy nazorat metodologiyasini o’rganish samarali moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi bo’lib, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan ushbu kategoriyani yanada chuqur tadqiq qilish va takomillashtirish moliyaviy boshqaruv sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida davlat moliyaviy nazoratining yaxlit tizimini tashkil etish va faoliyatining kontseptual asoslarini yaratish bo’yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanilgan.

Shuningdek, bilishning tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash kabi umumiy ilmiy usullari, hamda umumiy iqtisodiy usullar: tasniflash, guruhlash va boshqalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi


Zamonaviy jamiyatda nazorat aniq iqtisodiy muammolarni hal qilishda tartibga soluvchi sifatida tobora ko’proq foydalanilmoqda. Ammo shuni ta’kidlash joizki, respublikada moliyaviy nazorat samaradorligi qoniqarli darajada emas. Bunday holatning sabablaridan biri nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun umumiy qonunchilik va uslubiy asoslarning yo’qligi hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning nazariy jihatlarini tahlil qilishdan oldin moliyaviy nazorat tizimining tuzilishi qanday bo’lishi kerakligini aniqlash kerak.

Har qanday tizimning tarkibiy qismlari - bu elementlar, elementlarning xususiyatlari, elementlarni tizim xususiyatlari bilan bog’laydigan aloqalar, shuningdek, tizim elementlari va ularning guruhlari o’rtasidagi eng muhim va barqaror aloqalarni aks ettiruvchi tizimning tuzilishidir. Nazorat tizimini aniqlash muammosi bo’yicha asosiy munozara ushbu tizimning elementlari sifatida nimani ko’rib chiqish kerakligi haqidagi savol atrofida jamlandi [15].

Rodionova va Shleynikova har qanday nazorat tizimi quyidagi elementlardan iborat ekanligini ta’kidlaydilar: predmet (nima nazorat qilinadi), obyekt (kim nazorat qilinadi), subyekt (kim nazorat qiladi), faoliyat doirasi, prinsiplar, jarayonlar, usullar (uslubiyatlar), texnika va texnologiya, nazoratni amalga oshirish uchun dastlabki ma’lumotlarni yig’ish va qayta ishlash mexanizmi, natija, nazorat natijalari bo’yicha qaror qabul qiladigan subyekt va nazorat natijalari bo’yicha qaror qabul qilish [30].

Burtsev tomonidan taklif etilgan davlat moliyaviy nazorati tizimining modeli ushbu tizimni tashkil etish va faoliyat yuritishida muvofiqlashtirilgan va kompleks yondashuvni ifodalaydi [9]. U quyidagi asosiy elementlarga e’tibor qaratadi (1-rasm):



1-rasm. Moliyaviy nazorat tizimi elementlari

- nazariy asos: davlat moliyaviy nazoratining asosiy tushunchalari, maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va talablari hamda har xil turlarining ta’riflarini o’z ichiga oladi.

- normativ-huquqiy baza va uslubiy ta’minot: bu davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, qoidalar va standartlarni, shuningdek, nazorat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo’lgan uslubiy materiallar va ko’rsatmalarni o’z ichiga oladi.

- tashkiliy tuzilmalar: davlat moliyaviy nazorati tizimida turli tashkilotlar va ularning munosabatlarini o’z ichiga oladi. Bunga mas’uliyat markazlarini tavsiflash va boshqaruv tuzilmasini yaratish ham kiradi.

- ilmiy-tadqiqot va o’quv bazalari: tizimni ilmiy va ta’lim nuqtai nazaridan ta’minlash, shuningdek, kadrlarga bo’lgan talab va kadrlar tayyorlashni belgilaydi.

- moddiy texnik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash: bu jihat zarur resurslar, jumladan, moliyalashtirish, texnik vositalar, binolar va nazorat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

- axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi: davlat moliyaviy nazorati tizimida axborot almashish va harakatlarni muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan axborot ta'minoti va aloqa tizimini o'z ichiga oladi.

Ushbu model davlat moliyaviy nazorati tizimini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni ta'minlaydi, bu esa nazorat funksiyalarini yanada samarali va muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Maqsadlarning xilma-xilligi va moliyaviy nazorat vazifalarining ko'p qirraliligi tufayli ushbu yondashuvni eng maqbuli sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkinki, moliyaviy nazorat tizimining nazariy asosining muhim elementi bu moliyaviy nazorat tushunchasining ta'rifidir. Ammo "moliyaviy nazorat" tushunchasiga ta'rif berishdan avval, hanuzgacha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning bahsli mavzusi bo'lib kelayotgan "nazorat" tushunchasining ta'rifini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mironovning fikricha nazorat og'ishlarning sabablarini tahlil qilishni, salbiy hodisalarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi va og'ishlarni bartaraf etish uchun boshqariladigan obyektga ta'sir qilish usullarini belgilaydi [27].

Dedeckova nazorat - bu faoliyatni tashkiliy maqsadlarga yo'naltiradigan har qanday jarayon ekanligini, hamda, samarali menejerlar faoliyatning rejalashtirilganidek ketayotganiga ishonch hosil qilishlarini ta'kidlaydi [2]. Ba'zi menejerlar buni tan olishni xohlamaydilar, lekin nazorat muammolari - boshqaruvning yetishmasligi yoki noto'g'ri boshqaruv turlari – ko'pincha katta zararga olib keladi [1].

Yana bir muallifning so'zlariga ko'ra nazorat erishilgan natijalarni rejalashtirish jarayonida belgilangan maqsadlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi, bu faoliyatni yanada to'g'rilash, masalan, maqsadlarga erishilmaganligi va vazifalar hal qilinmaganligi sabablarini aniqlash uchun muhimdir. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, nazorat nafaqat boshqaruvning yakuniy bosqichi, balki yangi boshqaruv siklining boshlanishi, ya'ni nazorat natijalari asosida amalga oshiriladigan rejalashtirish uchun zarur shartdir [34].

Marenkov va Kasyanov nazoratning maqsadlari jamiyat va davlat hayotining haqiqiy holatini obyektiv o'rganish, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishish va qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishga tubdan ta'sir ko'rsatadigan omillar va shartlarni aniqlashdir, deb hisoblaydi [25].

Nazoratning asosiy tamoyillari to'g'risidagi Lima deklaratsiyasiga binoan nazorat o'z-o'zidan maqsad emas, balki tartibga solish tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning maqsadi tuzatish choralarini ko'rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zararni qoplash yoki kelajakda bunday huquqbuzarliklarning oldini olish yoki kamaytirish choralarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish uchun moddiy resurslardan foydalanishda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqish hamda qonuniylik,

samaradorlik va tejamkorlik prinsiplarining buzilishini imkon qadar erta bosqichda aniqlashdan iborat[1].

Nazorat tushunchasiga nisbatan ushbu yondashuvlarning barchasini to'g'ri deb hisoblaymiz, chunki boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi va vazifalarining xilma-xilligi tufayli ko'p qirrali vositadir. Shu bilan birga, nazorat bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli jihatlardan uning mohiyati va mazmunini to'liq aks ettiruvchisini ajratib ko'rsatish kerak. Shunday qilib, nazorat tartibga solish tizimining ajralmas qismi bo'lib, tizimni boshqaruvchi subyektga boshqariladigan obyektning haqiqiy holati to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi deb xulosa qilishimiz mumkin.

Xuddi shunday tarzda "moliyaviy nazorat" tushunchasini ham ko'rib chiqamiz. Bir guruh olimlar "moliyaviy nazorat" tushunchasining falsafiy ta'rifini keltirar ekan, uni resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan boshqaruv tafakkurining falsafiy uslubi deb atashadi [22]. Umuman olganda iqtisodiy faoliyat negizida moliya (moliyaviy munosabatlar) yotganidek, nazorat faoliyati negizida moliyaviy nazorat yotadi [12]. Mualliflar o'z fikrini davom ettirar ekan, moliyaviy nazorat ko'p qirrali ekanligini, shuningdek, u moliyaviy rejalashtirish va prognozlash, operativ moliyaviy boshqaruv va boshqalar bilan bir qatorda moliyaviy munosabatlarni boshqarishning funksional elementlaridan biri sifatida qaralashini va ular bilan bevosita bog'liq va bir vaqtning o'zida amalga oshirilishini ta'kidlashadi.

Gryaznovaning ta'kidlashicha, moliyaviy nazorat "davlat moliyaviy boshqaruvining funksiyasidir. Moliyaviy nazorat - bu davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tekshirish usullari, organlari va choralari tizimidir. Shuningdek u, byudjet mablag'laridan foydalanishning qonuniyligi va oqilonaligini, davlat mulkning daxlsizligini ta'minlashga, moliyaviy intizomning buzilishini aniqlashga yordam beradigan davlat nazorati shaklidir [17].

Moliyaviy nazorat tushunchasini operativ va strategik vazifalarga erishish uchun boshqaruvdagi moliyaviy-iqtisodiy funksiyalar bilan birlashtirilgan iqtisodiy faoliyatning alohida kursi deb hisoblash mumkin [3]. Qolaversa, moliyaviy nazoratni - uni tashkil etishning o'ziga xos shakllari va usullaridan foydalangan holda moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini tekshirish faoliyati sifatida ham ko'rishimiz mumkin [23]. Davlat moliyasini boshqarish nuqtai nazaridan moliyaviy nazorat - mamlakatni samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi xatti-harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ushbu ta'riflarga ko'ra, moliyaviy nazoratni quyidagi jihatlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida tavsiflash mumkin: boshqariladigan obyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kuzatish, moliyaviy munosabatlar subyektlari tomonidan moliyaviy qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish, shuningdek iqtisodiy faoliyat va boshqaruvning barcha ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlarini himoya qilish.

[1] 1977 yil oktyabrda Oliy nazorat organlari xalqaro tashkilotining IX kongressida qabul qilingan nazoratning yetakchi tamoyillari to'g'risidagi Lima deklaratsiyasi

Moliyaviy nazoratning maqsadi davlat va tijorat tashkilotlarining muvaffaqiyatli moliyaviy strategiyasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, shuningdek, tarmoqlar va mamlakat iqtisodiy faoliyatning barcha darajalarida moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashdir. Manuylenko va Shebzukhova moliyaviy nazoratning maqsadini mumkin bo'lgan qonun buzilishlari va og'ishlarni prognoz qilish va ularni bartaraf etish deya talqin qiladilar [4].

Davlat moliyaviy nazoratning samarali tizimi universal va amaliy tamoyillarga asoslanadi. Nazoratning universal tamoyillariga: ustunlik, halollik, mustaqillik, xolislik, kompetentlik, oshkoralikni kiritish mumkin. Ular samarali moliyaviy nazorat tizimining asosi hisoblanadi. Qaysi turdagisi bo'lmasin, ushbu tamoyillarni amalga oshirish davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nufuzini mustahkamlashga va fuqarolarning unga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Nazoratning amaliy tamoyillariga: rejalashtirish, izchillik, uzluksizlik, demokratik markazlashuv, samaradorlik, qonuniylik, kasbiy kompetentsiya, mas'uliyat kiradi. Bular tashkiliy-iqtisodiy tamoyillar bo'lib, moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirishning konsepsiyalari ularni hisobga olgan holda yaratiladi va nazorat mexanizmining ishlash shartlari davlat turi, siyosiy rejim va iqtisodiy imkoniyatlari, davlat rivojlanishi uchun mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liq holda belgilanadi [11].

Jamiyat uchun tushunarli bo'lgan aniq tamoyillarga rioya qilish moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalariga erishish, shuningdek, yaxlit va samarali nazorat tizimini shakllantirishning asosiy shartidir. Bu tamoyillar butun nazorat nazariyasini qamrab oluvchi asosiy boshlang'ich nuqtalarni ifodalaydi. Ko'plab olimlar o'z ishlarida nazorat tamoyillarini o'rganishga xarakat qilgan bo'lib, ularning moliyaviy nazorat tamoyillari yuzasidan ilmiy qarashlarida farq yo'qligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Barcha mualliflar deyarli bir xil tamoyillarni sanab o'tadilar, ularning asosiylari quyidagilar (2-rasm):

Mustaqillik	•moliyaviy nazorat organlari o'zlari faoliyatini tekshirayotgan davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlardan tashkiliy, funksional, moddiy va boshqa mustaqillikka ega bo'lishi kerak
Qonuniylik	•moliyaviy nazorat organlari qonun hujjatlarida belgilangan me'yor va qoidalarga qat'iy amal qilishi kerak
Javobgarlik	•moliyaviy nazorat organlari o'zlariga yuklangan nazorat funksiyalari va vazifalarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun iqtisodiy, intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak
Shaffoflik	•moliyaviy nazorat organlari faoliyatining ochiqligi, har bir fuqaroning nazorat faoliyati natijalari to'g'risidagi axborotdan foydalanish imkoniyati mavjudbo'lishi kerak
Xolislik	•moliyaviy nazorat organlari faoliyati, ularning tekshirishlarni rejalashtirish va o'tkazishga bo'lgan yondashuvlari, tekshirishlar bo'yicha xulosalar har qanday tarafkashlik yoki moyillikni istisno qilishi kerak
Tizimlilik	•moliyaviy nazorat organlari tizimi mavjud bo'lishi kerak

2-rasm. Moliyaviy nazorat tamoyillari

Moliyaviy nazorat tizimi o’zaro bog’liq elementlarni, jumladan, nazorat subyektlari, obyektlari va predmetlarini o’z ichiga oladi.

Nazorat subyekti: moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun mas’ul bo’lgan shaxs, guruh yoki organ nazorat subyekti hisoblanadi. Odatda bu tashkilot rahbariyati, moliya bo’limi, auditorlar sanaladi. Nazorat qiluvchi subyekt nazorat qoidalari va tartiblarini belgilaydi, moliyaviy ma’lumotlarni nazorat qiladi va tahlil qiladi, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavf va xatolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralarini ko’radi. Agarda so’z davlat moliyaviy nazorati xususida ketadigan bo’lsa, u holda vakolatli davlat organlarining ikkita asosiy guruhiga davlat moliyaviy nazorati subyektlari sifatida qaraladi: tashqi nazorat subyektlari - davlat auditi; ichki nazorat subyektlari. Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazorati subyektlari nafaqat ijro etuvchi hokimiyat organlari, balki alohida maqomga ega bo’lgan davlat organlari hamdir [32].

Nazorat obyekti: moliyaviy nazorat obyektlari moliyaviy ko’rsatkichlardir, lekin ular moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini tartibga solganligi sababli, butun ishlab chiqarish va xo’jalik faoliyati jarayoni moliyaviy nazorat obyektiga aylanadi. Davlat moliyaviy nazorati obyektlari davlat organlari tomonidan nazorat qilinadigan va kuzatiladigan moliyaviy jihatlar va resurslarni ifodalaydi. Davlat moliyaviy nazorati davlat moliyasini samarali boshqarishni ta’minlash, moliyaviy intizomni saqlash va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan.

Nazorat predmeti: nazorat subyekti tomonidan tahlil qilinadigan va baholanadigan moliyaviy operatsiyalarning o‘ziga xos tomonlari sanaladi. Bular nazorat yo’naltirilgan jihatlar, parametrlar yoki sohalardir. Masalan, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish, qonun buzulish holatlarini hamda resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va boshqalar nazorat predmeti bo’lishi mumkin. Shuni alohida qayd etish kerakki, nazorat predmeti nazoratning maqsad va vazifalariga qarab belgilanadi. Masalan, auditda moliyaviy hisobot, boshqaruv nazoratida esa byudjet ko’rsatkichlarining bajarilishi nazorat predmeti bo’lishi mumkin. Maqsadlarga samarali erishish uchun aniq nima nazorat qilinishini aniqlash muhimdir.

Nazorat subyekti nazorat obyektlarini nazorat predmetlariga muvofiqligini baholash uchun ularni tekshirish va tahlil qilishning muayyan usullari va vositalaridan foydalanadi. Ushbu tahlil natijalari kamchiliklar, xatolar yoki qoidabuzarliklarni aniqlashga, moliyaviy nazorat va boshqaruvni takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar va harakatlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin. Bu elementlarning barchasi moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi va yaxlitligini ta’minlash, xavflarni kamaytirish va moliyaviy operatsiyalarni qonunlar va standartlarga muvofiqligini ta’minlashga yordam beradigan moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish uchun birgalikda ishlaydi.

Ko’pgina mualliflar moliyaviy nazoratning shakllari, usullari va turlarini tasniflash masalalari bilan shug'ullanganligiga qaramasdan bu masala bo’yicha hali ham umumiy fikr mavjud emas.

Moliyaviy nazorat usullari juda xilma-xildir. Qayd etish kerakki, usul deganda muayyan nazorat vazifalariga erishiladigan harakatning ma’lum bir usuli sifatida

tushunish kerak [20]. Ta’kidlanganidek, moliyaviy nazorat usullari moliyaviy faoliyat usullari kabi xilma-xildir va ular turli xil kombinatsiyalarda ishlatilishi mumkin [36].

Rodionova va Shleynikov nazorat usulini nazorat obyektining aniq elementlari holatini tekshirish, baholash va tahlil qilish uchun yaxshi asoslangan va sinovdan o’tgan usullar majmuasi sifatida izohlaydilar [30]. Burtsev davlat moliyaviy nazorati usuli deganda uni maqsadiga erishish usuli sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi [10].

Naymanbaevaning fikricha davlat moliyaviy nazorati turli usullar bilan amalga oshiriladi, bu esa uni amalga oshirishning texnikasi yoki usullari, vositalari deb tushuniladi [28]. O’z navbatida, Vostrikova moliyaviy nazorat usullariga semantik mazmuni bo’yicha o’xshash ta’rif beradi va moliyaviy nazorat usullarini uni amalga texnikalari, yo’llari va vositalari deb tushunish kerakligini ta’kidlaydi [13].

Har qanday bilim sohasida odatda usullarning ikkita guruhini ajratib ko’rsatish mumkin: umumiy ilmiy va maxsus. Umumiy ilmiy usullarga: tahlil, sintez, deduksiya, induksiya, abstraksiya, konkretlashtirish, rasmiylashtirish, ideallashtirish, umumlashtirish, o‘lchash, tajriba va boshqalar kiradi. Maxsus usullarga esa moliyaviy nazoratni amalga oshirishda nazoratchi tomonidan bajariladigan harakatlar majmui kiradi [7].

Muallif o’z fikrini davim ettirar ekan, maxsus usullarni ikki guruhga bo’lib o’rganish taklif qiladi.

1) haqiqiy nazorat usullari

2) hujjatli nazorat usullari

Haqiqiy nazorat usullari inventarizatsiya, nazorat o’lchovlari, sinov xaridi va nazorat qilish obyektlarini jismoniy o’rganish bilan bevosita bog’liq bo’lgan boshqa usullarni o’z ichiga oladi.

Hujjatli nazorat usullari hujjatlar tahliliga asoslangan protseduralarni o’z ichiga oladi. Bunda barcha zarur ma’lumotlarning mavjudligi, ularni to‘ldirishning to‘g‘riligi va xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi tekshiriladi. Bundan tashqari, hujjatli nazorat usullariga iqtisodiy tahlil, arifmetik hisoblar va mantiqiy tekshirish usullari ham kiradi. Ushbu tartiblarni analitik nazorat usullarining alohida guruhiga ajratishni maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi.

Melnik, Panteleev va Zvezdin xuddi shunga o’xshash fikrni ilgari suradilar va ichki moliyaviy nazorat usullarini ikki guruhga ajratib ko’rsatadilar: hujjatli tekshirish usullari va haqiqiy usullar [26].

Karatonov va Tsindelianining fikricha, metodni texnikalar tizimi sifatida qarash kerak. Moliyaviy nazorat usulining ta’rifini shakllantirar ekan, ushbu mualliflar moliyaviy nazorat usuli deganda uning maqsadlariga erishishga olib keladigan texnikalar tizimi tushunilishi kerakligini ta’kidlaydilar. Mualliflar tomonidan berilgan moliyaviy nazorat usulining ta'rifi bilim maqsadiga erishish usuli sifatida usulning falsafiy ta'rifiga eng yaqin. Mualliflar tomonidan berilgan moliyaviy nazorat usulining ta’rifi usulning falsafiy ta’rifiga eng yaqini xisoblanadi [37]. Moliyaviy nazorat usullarini aniqlashda aynan shunday yondashuv moliyaviy nazorat usullarini belgilashda rasmiy mantiqqa eng ko’p mos keladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, moliyaviy nazorat usullari qo’llanilish bosqichiga qarab farqlanadi. Dastlabki va joriy nazorat bosqichlarida quyidagi usullar qo’llaniladi:

- davlatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlanishi sharti bilan moliyaviy rejalar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni tekshirish, shuningdek bu hisob-kitoblarni xalq xo'jaligi rejasi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- pul mablag'larini to'lash yoki olish uchun taqdim etilgan hujjatlarini tekshirish.

Nazoratning keyingi bosqichida asosiy usul audit hisoblanadi. Audit moliyaviy nazoratning muhim bosqichi bo'lib, tashkilotning moliyaviy faoliyatining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashga, shuningdek, moliyaviy xavf va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Moliyaviy nazorat usullarining ko'p bosqichli tizimi umumiy va o'ziga xos jihatlarni qamrab oluvchi turli yondashuv va usullarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy nazorat usullarini quyidagi uchta darajaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi (3-rasm):


1. **Umumiy ilmiy usullar:** Bu usullar umumiy qabul qilingan va turli sohalarda qo'llaniladigan universal usullardir. Bularga tahlil, sintez, deduksiya, induksiya, modellashtirish, statistik usullar, mantiqiy usul, qiyosiy metod, abstraksiya, konkretlashtirish va boshqalar kiradi.

2. **Maxsus usullar:** Bu usullar ixtisoslashgan va muayyan vazifalar va sohalarga moslashtirilgan. Masalan, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish usullari, moliyaviy modellashtirish va risklarni baholash.

2.1. **Empirik usullar:** Bu usullar dalillar va tajribalarni kuzatish va tahlil qilishga asoslangan. Bularga inventarizatsiya, binolar va ob'ektlarni tekshirish, ishning nazorat o'lchovlari, asbob-uskunalarni sinovdan o'tkazish, kuzatish, ekspertiza, eksperiment, hisob-kitoblarni tekshirish, hujjatlarni tekshirish, hisoblash usuli, bir hil faktlarni taqqoslash usuli, skanerlash, yozma va og'zaki so'rovlar kiradi.

2.2. **O'zaro bog'liq iqtisodiy fanlarning o'ziga xos usullari:** Bu usullar mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, moliya nazariyasi va boshqalar kabi iqtisodiy fanlarda qo'llaniladigan bilim va usullarga asoslanadi.Ular iqtisodiy tahlil usullari, iqtisodiy va matematik usullar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

3. **Nazorat qilinadigan odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilish usullari:** Bu usullar moliyaviy me'yorlar va qoidalarga rioya qilishni ta'minlash uchun nazorat qilinadigan odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, rag'batlantirish, jazolash va o'qitish choralarini o'z ichiga olishi mumkin.



3-rasm. Moliyaviy nazorat usullari

O'z vaqtida xuddi shunday tasnifni Burtsev ham taklif qilgan bo'lib, u moliyaviy nazorat usullarini quyidagicha tasniflashni taklif qilgan: nazorat obyektlarini o'rganishning umumiy ilmiy uslubiy usullari; empirik metodologik usullar; turdosh iqtisodiy fanlarning o'ziga xos iqtisodiy texnikasi [10].

Moliyaviy nazorat usullarining ko'p bosqichli tizimi tashkilotning moliyaviy faoliyatining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashga kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Nazorat usullarini tanlash, birinchi navbatda, ish va vazifalar hajmiga bog'liq. Bunda asosiy mezonlar nazorat faoliyati bo'yicha ish vaqtini minimallashtirish va tanlangan nazorat usulining samaradorligi hisoblanadi. Bundan tashqari, moliyaviy nazorat usullarini quyidagi omillar kombinatsiyasiga qarab tanlash kerak: nazorat predmeti, nazorat obyekti, nazorat subyekti oldida turgan maqsad va vazifalar, huquqiy munosabatlarni nazorat qilish uchun asoslar, shuningdek, boshqa holatlar [5].

Moliyaviy sektordagi munosabatlarning xilma-xilligi nazorat turlari, shakllari va qo'llaniladigan usullarining xilma-xilligini ko'rsatadi, bu esa ularni tasniflashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Tasniflash atamasining o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u ma'lum bir bilim yoki amaliy faoliyat sohasiga mos keladigan yagona tizim doirasida tasniflangan elementlar o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi umumiy xususiyatlarga qarab obyektlar, hodisalar yoki toifalarni turli sinflarga bo'lish jarayonini anglatadi.

Moliyaviy nazoratni tasniflash mezonlarini takomillashtirish muammosi ko'plab olimlarning ishlarida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Abduxanova davlat moliyaviy nazorati turlarining quyidagi tasnifini taklif qiladi [6]:

- vaqt bo'yicha: dastlabki, joriy, keyingi;
- amalga oshirish subyektlari bo'yicha: idoraviy bo'lmagan (idora ustidan), idoraviy (idora ichidagi), xo'jalik ichidagi (ichki) nazorat - faqat davlat muassasalari, tashkilotlari, korxonalarida amalga oshirilganda;
- amalga oshirish tartibiga ko'ra: rejali, rejadan tashqari;
- hujjatlarni tekshirish usuli bo'yicha: uzluksiz (barcha hujjatlar va moddiy boyliklar nazorat qilinadi), tanlab (butun obyekt nazorat qilinmaydi, balki uning bir qismi);
- chastotasi bo'yicha: boshlang'ich, takroriy;
- ma'lumot manbai bo'yicha: hujjatli, haqiqatda.

Ershov moliyaviy nazorat turlarini tasniflash uchun quyidagi asoslarni aniqladi [19]:

– nazorat faoliyati subyektlari va xarakteri;
- nazorat obyekti;
- o'tkazish vaqt;
- amalga oshirish shakllari.

Nazorat faoliyatining subyektlari va xarakteriga asoslanib Sheremet va Suyts davlat, idoraviy va idoraviy bo'lmagan moliyaviy nazorat turlarini aniqladilar [38]. Ximichevaning fikricha, moliyaviy nazorat, nazorat faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib, u davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, umumiy vakolatli ijro etuvchi hokimiyat organlari, moliya-kredit organlari, idoraviy va ichki xo'jalik, davlat, auditorlik nazoratini o'z ichiga oladi [35]. Amalga oshirish vaqtiga ko'ra, eng keng tarqalgan nazorat turlari dastlabki, joriy va keyingi hisoblanadi [16].

Brovkina o'z tadqiqotlarida moliyaviy nazoratni tasniflash uchun quyidagi asoslarni aniqladi [8]:

• tashkilot darajasiga qarab:
• normativ-huquqiy bazaga qarab;
• moliyaviy nazoratni o'tkazish sohasiga qarab va boshqalar.

Gvarliani va Cheremshanov moliyaviy nazoratni nazorat auditida ishtirok etuvchi subyektlar soni kabi mezonlarga ko'ra tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [15]. Ushbu mezonga muvofiq, moliyaviy nazoratning quyidagi turlarini ajratamish mumkinligini ta'kidlaydilar:

- bir subyekt tomonidan tashkil etilgan moliyaviy nazorat;
- birgalikdagi moliyaviy nazorat.

Bu xususiyat nazoratga bag’ishlangan ishlarning hech birida uchramaydi, garchi uning zarurligi aniq bo’lsa ham. Birgalikda nazorat turli darajadagi ko’plab nazorat subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.


Ammo shuni alohida qayd etish kerakki, davlat moliyaviy nazoratining yagona tasniflash mezonlarining mavjud emasligi sababli davlat moliyaviy nazoratining yagona metodologiyasini ishlab chiqish qiyin kechadi. Davlat moliyaviy nazorati tizimida mavjud uslubiy tafovutlar uning samaradorligini pasaytiradi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, davlat moliyaviy nazoratining yagona tasniflash mezonlarining yo’qligi uning amalga oshirilishiga salbiy ta’sir ko'rsatmoqda [21].

Shunday qilib, moliyaviy nazorat usullarining ta’rifi ham, usullar, uslublar va vositalarning ta’rifi va tasnifi ham moliyaviy huquq nazariyasida har xil. Bizning fikrimizcha tasniflash mezonlarini va tasniflash belgilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish, shuningdek, ularning soddaligi va izchilligini ta’minlash kabi qator tamoyillarga asoslanib, moliyaviy nazoratni tasniflashning mavjud nazariy yondashuvlarini umumlashtirish zarur. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tasnifining asosiy tuzilmasini shakllantirish turli tasniflash mezonlarini o’z ichiga oladi, jumladan, nazorat subyektlari, nazorat obyektlari, nazorat faoliyatini amalga oshirish usullari, muddatlari va boshqalar. Ushbu tasniflash mezonlarini ikkita asosiy guruhga bo’lish mumkin:

1) moliyaviy boshqaruv funktsiyalarining mohiyati va mazmunini aks ettiruvchi tasniflash asoslari;

2) nazorat faoliyatining xususiyatlarini tavsiflovchi tasniflash asoslari.

Shunday qilib, moliyaviy nazorat sohasida moliyaviy nazorat subyektlari, obyektlari, usullari, nazorat faoliyatini amalga oshirish muddatlari va boshqalar kabi asosiy tasniflash belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, nazorat choralarining majburiyligi, ularni amalga oshirish joyi va boshqa xususiyatlarni o’z ichiga olgan o’ziga xos tasniflash xususiyatlari ham mavjud.


Moliayviy nazoratning tasniflash belgilari
Fundamental
Maxsus
Nazorat subyektlari
Nazorat obyektlari
Nazorat obyektini o’ rganish usullari
Nazoratni amalga oshirish vaqti
nazorat subyektining nazorat obyektiga nisbatan holati
Nazoratning majburiyligi
Nazorat obyektini qamrab olish darajasi
Tasniflash bo'limi
Nazorat turlari
Nazorat shakllari
Nazorat usullari
Nazorat shakllari (o’tkazish vatiga ko’ra)
Nazorat yo’nalishi
Nazorat holati
Nazorat ko’lami
Davlat, nodavlat
Byudjet; soliq; bojxona; valyuta; sug’ urta; kredit; pul bilan bog’ liq; kredit; moliyaviy munosabatlar
Tekshiruv; tadqiq etish; boshqaruv nazorati; moliyaviy holat tahlili; kuzatuv (monitoring); taftish
Dastlabki; joriy (operativ); navbatdagi
Tashqi, ichki
Majburiy (tashqi); tashabbusli (ichki)
To’ liq, qisman

4-rasm. Moliyaviy nazoratning turlari, shakllari va usullarining tasnifi

Tadqiqot mavzusiga nisbatan qo'llanilgan tahlil usuli yuqorida keltirilgan tasniflash mezonlariga muvofiq moliyaviy nazoratning tasnifini shakllantirishga imkon beradi. Shunday qilib, biz moliyaviy nazoratni tizimlashtirish uchun tasniflash mezonlari sifatida quyidagilarni tanlaymiz: moliyaviy nazorat turlari, moliyaviy nazorat usuli va moliyaviy nazorat shakli. Biz taklif etayotgan moliyaviy nazorat turlari, shakllari va usullarini tasniflash tizimi davlat moliyaviy nazorati sohasidagi terminologiyani tizimlashtirishga yordam beradi deb xisoblaymiz (4-rasm).

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar barcha muammolarni qamrab ololmaydi, ammo shunga qaramay, bu bizga zamonaviy moliyaviy nazorat nazariyasining ilmiy maktablarini har tomonlama baholash va shu asosda uni amaliyotga tatbiq etishning samarali modelini yaratish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki, davlat moliyaviy nazorati metodologiyasi - bu davlat organlari va muassasalari tomonidan davlatning moliyaviy resurslarini to'g'ri boshqarish va nazorat qilishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan tamoyillar, usullar, tartiblar va vositalar tizimi. Bu moliyaviy bosharuvning muhim jihati bo'lib, davlat moliyaviy operatsiyalarining shaffofligi, samaradorligi va huquqiy ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy nazorat metodologiyasining turli jihatlarini tahlil qilish jarayonida ushbu soha mutaxassislariga moliyaviy nazorat vositalarini yaxshiroq tushunish va qo'llashga yordam beradigan asosiy tamoyillar, usullar va tasniflash mezonlari aniqlandi.

Maqolada keltirilgan moliyaviy nazorat usullarini tizimlashtirish va tasniflash tashkilotlar va davlat muassasalariga moliyaviy resurslarni yanada samarali boshqarish, risklarni aniqlash va moliyaviy normalar va qoidalarga rioya etilishini ta'minlash imkonini beradi. Bu usullar moliyaviy nazorat sohasidagi bilimlarni tashkil etish va tizimlashtirishga ham yordam beradi, bu esa ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy nazorat moliyaviy boshqaruvning asosiy elementi bo'lib qolmoqda va uni samarali qo'llash moliyaviy barqarorlikka erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maqola moliyaviy nazorat sohasida keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, shuningdek, moliyaviy menejmentda yanada samarali strategiyalar va amaliyotlarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Bateman T.S., Snell S.A., Konopaske R. (2019) Management: Leading & Collaborating in a Competitive World.

Dedeckova N. (2020) Control, controlling and its objectives in the organization. SHS Web of Conferences 83, 01009. P. 1-8

Mann R. & Mayer E. (2004). Controlling for beginners. Profit management system (2nd ed.)

Manuylenko V., Shebzukhova M. (2021) Theory for Financial Controlling in Corporations in the Modern Environment. Universal Journal of Accounting and Finance. p. 9.

Shulha A., Zharovska I. (2019) Methods of financial control of the state financial inspection of Ukraine. Baltic Journal of Economic Studies, Publishing house "Baltija Publishing", vol. 5(1). P.248

Абдуханова, И.А. (2011) Актуальные вопросы классификации государственного финансового контроля. Вестник Санкт-Петербургского университета. Право, (1), 9-15.

Арабян, К.К. (2013) Исследование классификационных признаков финансового контроля. Статистика и экономика, (1), С. 21-24.

Бровкина Н.Д. (2010) Основы финансового контроля: учебное пособие под. Ред. М.В. Мельник. – М.: Магистр. -382 с.

Бурцев В.В. (2002) Организация системы государственного финансового контроля в Российской Федерации: Теория и практика. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко». -с.95

Бурцев В.В. (2000) Государственный финансовый контроль: методология и организация. М. С. 96.

Васильева М.В. (2009) Становление и особенности развития контрольно-счетных органов в Российской Федерации: монография. Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та. 347 с.

Волков А.Ю., Волков М.А. (2014). Финансовый контроль как категория. Статистика и экономика, (6-2), 394-398.

Вострикова Л. Г. Финансовое право: Учебник для вузов. М., 2006. С. 54.

Вознесенский Э.А. (1973) Финансовый контроль. -Москва : Юридическая литература.

Гварлиани Т.Е., Черемшанов С.В. (2003) Исследование методологии финансового контроля. Аудит и финансовый анализ. (4). С. 5-18

Грачева Е.Ю. (2000) Проблемы правового регулирования государственного финансового контроля. М. -С. 10

Грязнова А.Г. (2004) Финансово-кредитный энциклопедический словарь. Колл. авторов под общ. ред. http://vocable.ru/dictionary/1049/ word/kontrol-fi nansovyi

Григорьев А.В., Самсонов А.Г. (2021). Виды, формы и методы финансового контроля, их систематизация. Журнал прикладных исследований, 5 (6), С. 412-418.

Ершов А.А. (2010) Аудит как вид финансового контроля// Финансовое право. -№10

Завьялова, Л.В., Шилехин, К.Е. (2013). Внутренний финансовый контроль в условиях нового законодательства. Вестник Омского университета. Серия «Экономика», (4), С. 88-99.

Карепина, О. И. (2006) Теоретико-методологические основы государственного финансового контроля в условиях рыночных отношений. Terra Economicus, (2), С. 255-258.

Карминский А.М., Фалько С.Г., Жевага А.А., Иванова Н.Ю. (2013) Контроллинг, Форум, Москва. 336 с.

Куликов И.М., Рябова Т.Ф. (2011) Глобальная экономика. Энциклопедия. -М. Финансы и статистика.

Майсигова Л.А. (2004). Формирование единой методологии финансового контроля: проблемы и решения. Международный бухгалтерский учет, (2), С. 22-24.

Маренков Н.Л., Касьянов В.В. Антикризисное управление. – Ростов-на-Дону: Изд-во «Феникс», 2004. – 512 с.

Мельник М. В., Пантелеев А. С., Звездин А. Л. Ревизия и контроль: учебник. – М. : Кнорус, 2006. – 640 с.

Миронов А.Л. (2012). Сущность государственного контроля. Вестник Московского университета МВД России, (9), С. 46-49.

Найманбаева С.С. Финансовое право. Общая и Особенная части. Алматы, 2004. С. 142.

Пашкова Т.А. (2020). Внедрение новых методов финансового контроля в деятельность органов внешнего муниципального финансового контроля. Инновационные аспекты развития науки и техники, (1), С. 60-65.

Родионова В.М., Шлейников В.И. Финансовый контроль: Учебник. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2002. – с.19

Тулаходжаева М. (1998) Организация и методы финансового контроля в республике узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук / Москва.

Фарикова Е.А. (2022) Субъекты государственного финансового контроля и аудита в современной России. Право и практика, (1), С. 157-163. doi: 10.24412/2411-2275-2022-1-157-163

Хайитбоев И.Х. (2021) Вопросы институционального развития государственного финансового контроля в узбекистане. В сборнике: теоретические и практические аспекты развития современной науки: теория, методология, практика. Сборник научных статей по материалам V Международной научно-практической конференции. Уфа. С. 49-55.

Хамхоев Б.М. (2023) Сущность финансового контроля. Право и государство: теория и практика, (4 (220)), С. 122-124.

Химичева Н.И. Финансовое право: Учебник. М., 1995. С. 83

Худяков А. И. Финансовое право. Общая часть. Алматы, 2001. С. 226–227.

Финансовое право: Учебник / Под ред. С. В. Запольского. М., 2006. С. 100

Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. М.: – 1995. С. 20